

## SUD TIZIMIDA KORRUPTSİYAGA QARSHI KURASHISH FAOLIYATINING NAZARIY VA HUQUQIY ASOSLARI

**Alinazarov Nodirxon Nosirxon o'g'li**  
*Farg'ona davlat Universiteti talabasi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada sud tizimida korruptsiyaviy omillar va ularga qarshi kurashida qonunchilik hujjatlarining mazmun-mo'xiyati haqida bilim va amaliy k'nikmalarini oshirishga, mazkur soxada muammolarning echimini topish va korruptsiyaga qarshi kurashida samarali usullarni q'llash b'ycha amaliy takliflarni ishlab chiqishga xizmat qiladi. Bundan tashqari maqolada u'quvchilarning mazkur soxada huquqiy bilimlarini yuksaltirishda, ularning mazkur illatga qarshi faol kurashida iştirok etish imkoniyatlarini kengaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi.*

**Kalit so'zlar:** *korruptsiyaviy omillar, sud sohasida ham korruptsiya illatlarini y'q qilish, korruptsiyaga qarshi kurash.*

### ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ И ПРАВОВЫЕ ОСНОВЫ БОРЬБЫ С КОРРУПЦИЕЙ В СУДЕБНОЙ СИСТЕМЕ

**Аннотация:** *Данная статья служит повышению знаний и практических навыков о коррупционных факторах в судебной системе, содержании и сущности законодательных актов по борьбе с ними, поиску решений проблем в этой области и разработке практических предложений по использованию эффективных методов в борьбе с коррупцией. Кроме того, статья имеет большое значение в совершенствовании правовых знаний студентов в этой области, расширении их возможностей по активной борьбе с этим злом.*

**Ключевые слова:** *коррупционные факторы, ликвидация коррупции в судебной сфере, борьба с коррупцией.*

### THEORETICAL AND LEGAL BASIS OF THE FIGHT AGAINST CORRUPTION IN THE COURT SYSTEM

**Abstract:** *This article serves to increase knowledge and practical skills about corruption factors in the judicial system and the content and essence of legislative acts in combating them, to find solutions to problems in this area and to develop practical proposals for the use of effective methods in the fight against corruption. In addition, the article is of great importance in improving the legal knowledge of students in this field, expanding their opportunities to actively fight against this evil.*

**Key words:** *corruption factors, elimination of corruption in the judicial sphere, fight against corruption.*

Korruptsiya murakkab ijtimoiy-iqtisodiy-siyosiy hodisa bo'lib, jamiyat taraqqiyotining muhim omillari bo'lmish tinchlik, osoyishtalik, adolat, qonun ustuvorligi kabi ijtimoiy-huquqiy qadriyatlarni yo'q qiladi, milliy xavfsizlikka tahdid soladi, mamlakat rivojiga to'siq bo'ladi.

Barcha sohalar qatori sud sohasida ham korruptsiya illatlarini yo'q qilish va uning rivojlanishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida korruptsiyaviy holatlarni o'z vaqtida aniqlash, oldini olish, ularga chek qo'yish, uning oqibatlarini, shuningdek, unga imkon beruvchi sabab va shart-sharoitlarni bartaraf etish muhim vazifalardan biridir. Ayniqsa, korruptsiyaga qarshi kurashishda uni keltirib chiqaruvchi omillarni bartaraf qilish, ya'ni uning oldini olishga qaratilgan harakatlar vaqt va natijadorlik nuqtai nazaridan ancha samarali hisoblanadi. Shu bois, sohada korruptsiyaga qarshi qaratilgan tashkiliy va huquqiy asoslarni yaratish, mavjudlarini zamon talablari asosida takomillashtirish va unga qat'iy rioya qilish, zarur ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni, shu jumladan fuqarolarning ushbu sohadagi bilimini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish kutilgan natijalarga erishishga imkon yaratadi.

Shu nuqtai nazardan sud faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari va ko'lamining kengligidan kelib chiqib, sud tizimida korruptsiyani keltirib chiqaruvchi omillarni aniqlash, oldini olish, bartaraf qilish va qarshi kurashish faoliyatini ilmiy va huquqiy jihatdan tadqiq etish davr talabidir.

Sud tizimida korruptsiyaviy omillarning mavjudligi, ularni aniqlash, oldini olish va ularga imkon beruvchi sabablar va shartsharoitlarni bartaraf etish bo'yicha yetarli tashkiliy va huquqiy asoslarning yaratilmaganligi, mavjud normalarga qat'iy rioya qilishni ta'minlovchi mexanizmlarning joriy etilmaganligi sud organlari va sud'yalar mustaqilligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi, odil sudlovni amalga oshirishda ichki va tashqi aralashuvlarga zamin yaratadi, sud organlarida nopok va munosib bo'lmagan sud'yalar korpusini shakllanishiga sabab bo'ladi. Bu nafaqat demokratik davlatning eng muhim printsiplaridan biri – qonun ustuvorligining buzilishiga va fuqarolarning odil sudlovga bo'lgan huquqining poymol bo'lishiga olib keladi, balki butun sud tizimining qonuniy faoliyatining yemirilishiga sabab bo'ladi.

Sud'yalarning halolligi va pokligi – bu sud tizimining samaradorligi va beg'arazligining birinchi zarur shartidir. Sud'yalarning halolligi va pokligi sud organlari mustaqilligi bilan chambarchas bog'liqdir: sud organlari sud'yalarning halolligi va pokligini ta'minlaydi, halollik va poklik esa mustaqillikni mustahkamlaydi.

Sotsiologik tadqiqot natijalari ko'rsatishicha, O'zbekiston Respublikasi Sud'yalar oliy kengashi tomonidan 2020 yilda sud organlarining mustaqilligi, sud'yalarning xolisligi va daxlsizligi, ularga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillarni aniqlash maqsadida respublika sudlarida so'rov o'tkazilgan. So'rov natijalariga ko'ra sud tizimidagi korruptsiyaviy omillar sifatida sudlar tomonidan sud raisi va sud'yalarga nisbatan tuman, shahar va viloyat hokimlari tomonidan tazyiq va bosim o'tkazilishi, ishlarga aralashish, shuningdek odil sudlovni amalga oshirish bilan bog'liq bo'lmagan boshqa

tadbirlarga jalb qilish holatlariga yo'l qo'yilayotgani, sud'yalarning daxlsizligi va xolisligi printsipi buzilayotgani, sud organlari va sud'yalarning moliyaviy va ijtimoiy himoyasi talabga javob bermasligi, sudlardagi shtatlar soni yetarli emasligi va odilona taqsimlanmaganligi, sud'yalarni navbatdagi muddatga tayinlashdagi ortiqcha byurokratik tartiblarning hali hamon mavjudligi, sud qarorlarining vaqtida va to'liq ijro etilmasligi, sud'ya va sud apparati xodimlari orasida korrupsiya va ta'magirlikka moyil shaxslarni aniqlashning samarali mexanizmining mavjud emasligi kabi salbiy holatlar bildirilgan.

Davlatimiz rahbari Sh.Mirziyoyev ham mazkur illatga qarshi kurashish davlat siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biri ekanligiga alohida urg'u berib, 2020 yil 24 yanvarda Oliy Majlisga yo'llagan Murojaatnomasida "Korrupsiyaga qarshi kurashishda aholining barcha qatlamlari, eng yaxshi mutaxassislar jalb qilinmas ekan, jamiyatimizning barcha a'zolari, ta'bir joiz bo'lsa, "halollik vaktsinasi" bilan emlanmas ekan, o'z oldimizga qo'ygan yuksak marralarga erisha olmaymiz. Biz korrupsiyaning oqibatlari bilan kurashishdan uning barvaqt oldini olishga o'tishimiz kerak4", - deya ta'kidlagan edi.

Sud tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish samaradorligini yangi bosqichga ko'tarish maqsadida maxsus hujjat –O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 29 iyundagi "O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6013-son Farmoni qabul qilinib, unda korrupsiya holatlarining sabab va shart-sharoitlarini aniqlash, ularni bartaraf etishning ta'sirchan tizimini yaratish zarurligi, ushbu ishlarga fuqarolik jamiyati institutlari va nodavlat sektorining boshqa vakillarini ham keng jalb etish zarurati mavjudligi qayd etildi. Mazkur Farmon bilan "O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tashkil etilib, uning vakolatlari, huquq va majburiyatlari, vazifalari belgilab berildi. Farmon bilan:

- Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha respublika idoralararo komissiyasi va uning hududiy idoralararo komissiyalari O'zbekiston Respublikasi korrupsiyaga qarshi kurashish milliy kengashi deb atalib, uning hududiy kengashlari ham qayta tashkil etildi;

- Bosh prokuratura, Adliya vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi hamda boshqa manfaatdor idoralar bilan birgalikda, shu jumladan xalqaro tashkilotlarning mablag'larini jalb qilgan holda, 2020-2021 yillarda barcha davlat va xo'jalik boshqaruvi organlarida korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tizimi («komplayens-nazorat»)ni bosqichma-bosqich joriy etish nazarda tutildi. Qayd etish lozimki, sud tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha maxsus vakolatli davlat organi nazarda tutilmaganligi bois, ushbu illatga qarshi kurashish bo'yicha vazifalar har bir sud organi zimmasiga u yoki bu darajada yuklatilgan edi. Xususan, Sud'yalarning oliy malaka hay'ati va joylardagi sud'yalarning malaka hay'atlari sud'yalar o'rtasida odob-axloq qoidalariga rioya etilishi, sud ishlariga aralashish holatlari, sud'yalarga nisbatan xizmat tekshiruvlari o'tkazish va ularni

javobgarlikka tortish kabi vazifalarni amalga oshirsa, sud tuzilmasida mavjud kadrlar bo'limi mazkur sud raisi rahbarligida unda faoliyat yuritayotgan barcha sud'yalar va sud xodimlarining mehnat va ijro intizomiga, odoq-axloq qoidalariga, sud'yalarning qasamyodiga qat'iy amal qilishlari bo'yicha zarur choralarni ko'radi. Bundan tashqari, har bir viloyat sudi sud'yasi ushbu viloyatda joylashgan bir yoki bir necha tuman (shahar) sudlari faoliyatiga mas'ul (kurator) hisoblansa, Oliy sud sud'yalari ham muayyan viloyat sudiga mas'ul (kurator) hisoblanadi. Ushbu holat, bir tomondan korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha yagona vertikal nazoratni amalga oshirish, barcha bo'g'indagi sudlarda korruptsiyaga qarshi kurashish ahvolini bilish imkonini bersa, ikkinchidan, butun respublika sudlarida ushbu yo'nalishda yagona davlat siyosatini yuritishga zamin yaratadi. Biroq, ushbu qonun yoki boshqa qonun hujjatlarida sud'yaning boshqa sudlar sud'yalari ustidan o'z majburiyatlarini bajarishi ustidan nazorat olib borish vakolati yoki vazifasi belgilanmagan.

Natijada bu:

- birinchidan, sud'yalarga qo'shimcha ish yuklamasi bo'lib, o'zining asosiy vazifasidan tashqari boshqa tashkiliy vazifalar bilan ham shug'ullanishni taqozo etadi;
- ikkinchidan, muayyan bir hududdagi (suddagi) vaziyat bo'yicha xulosani asosan birgina kurator-sud'yaning fikriga ko'ra chiqarish va shu asosda sud raisining faoliyatiga baho berishning o'zi ham korruptsiyaviy holatni keltirib chiqarishi mumkin;
- uchinchidan, kurator-sud'yaning korruptsiyaviy holatlarga barham berish, uning oldini olish va huquqbuzar sud'ya va sud xodimlariga ta'sirchan choralarni qo'llash bo'yicha vakolatlari qonunchilikda belgilanmagan. Shu sababli, ushbu sohani tartibga soluvchi, boshqaruvchi va nazorat qiluvchi alohida tuzilma tashkil etilishi, ushbu tuzilma sud'yalar mustaqilligini ta'minlovchi sud'yalar hamjamiyati organi huzurida yoki tarkibida bo'lishi hamda barcha masalalar kollegial tartibda hal etilishi hayotiy zaruriyat edi.

Sud hokimiyati tizimida korruptsiya holatlarini keltirib chiqaruvchi sabab va shart-sharoitlarni chuqur o'rganish va tahlil qilish, korruptsiyaga qarshi kurashish va uning oldini olish tizimini samarali yo'lga qo'yish, sud tizimini malakali va halol pok kadrlar bilan to'ldirish, sud organlarining faoliyatida ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash, fuqarolar va tadbirkorlik sub'ektlarining sud hokimiyatiga bo'lgan ishonchini yanada oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 7 dekabrda PF-6127-son Farmoni qabul qilindi. Farmonga muvofiq sud'yalar mustaqilligini ta'minlash va sud tizimida korruptsiyaning oldini olish bo'yicha davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari etib quyidagilar belgilandi:

- sud'yalarning odil sudlovni amalga oshirish bo'yicha kasbiy faoliyatini har qanday ko'rinishdagi tashqi ta'sirlardan samarali muhofaza qilishni ta'minlaydigan huquqiy mexanizmlarni yaratish;

- sud'yalikka kadrlarni tanlash, tayyorlash, lavozimga tayinlash, shuningdek, sud'yalar faoliyatini baholashda xolislik va shaffoflikni ta'minlash, ushbu jarayonlarga zamonaviy axborot texnologiyalarini izchil joriy qilish;

- sud'yalar va sud apparati xodimlari orasida korrupsiya holatlarining oldini olish va barvaqt aniqlashga qaratilgan tizimni yo'lga qo'yish hamda sud tizimida aniqlangan har qanday korrupsiyaviy harakatni murosasiz holat deb baholash;

- sud'yalarning kasbiy malakasi, ma'naviyati va mas'uliyatini oshirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish orqali yuksak professional sud'yalar korpusini shakllantirish.

Sud hokimiyatining mustaqilligiga daxl qilish, uning faoliyatiga aralashish holatlari amaliyotda uchrab turadi. Ayniqsa, mahalliy davlat hokimiyati organlari, shuningdek huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan sud'yalarga turli ko'rinishdagi tazyiq va bosimlar o'tkazilishi mumkin. Natijada ayrim sud'yalar o'zlarining tajribasizligi, qat'iyatsizligi va boshqa sabablarga ko'ra mazkur bosimlarga dosh berolmay, davlat organlari manfaatlariga mos keladigan noqonuniy va adolatsiz qarorlar qabul qilishlari mumkin. Bunday noqonuniy ta'sirga chek qo'yish, ba'zi davlat organlari va ular mansabdor shaxslarining xatti-harakatlariga huquqiy baho berish yuzasidan milliy qonunchiligimizda bo'shliqlar mavjud bo'lib, ta'sirchan choratadbirlar nazarda tutilmagan edi. Shu nuqtai nazardan, mazkur Farmonda uchta hokimiyat tarmog'ining alohida bir-biriga bo'ysunmagan holda bahamjihat faoliyat yuritishini ta'minlash vazifasi bosh qomusimiz – Konstitutsiyada O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga yuklatilganini e'tiborga olib, Sud'yalar oliy kengashi raisining sud'yalar mustaqilligini ta'minlash, sud tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish ahvoli yuzasidan har yili davlat rahbariga axborot taqdim etishi, shuningdek sud'yalarning daxlsizligini buzganlik va odil sudlovni amalga oshirish borasidagi faoliyatiga aralashganlik holatlari yuzasidan Kengash raisi tomonidan kiritilgan taqdimnoma prokuratura organlari tomonidan bir oy muddatda ko'rib chiqilib, jinoyat ishi qo'zg'atilganligi yoki qo'zg'atish rad etilganligi haqida Kengashga O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi tomonidan xabar berilish tartibi belgilandi.

Xulosa o'rnida qayd etish lozimki, sud tizimida korrupsiyaga qarshi kurashishda samaraga erishish uchun mavjud qonun hujjatlarini inventarizatsiyadan o'tkazib, korrupsiogen xarakterdagi normalarni bartaraf etish, to'g'ridan-to'g'ri ishlovchi qonunlarni qabul qilish, mavjudlarini takomillashtirib borish muhim ahamiyat kasb etadi.

#### **FODALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. - T.: 2023.
2. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi. – Toshkent, 2008. – № 7. – B. 8.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish choratadbirlari to'g'risida"gi PF-5729-son Farmoni. 2019 yil 27 may.

4. Aripov D.O'. Sud tizimida korrupsiyaga qarshi kurashishning nazariy va huquqiy asoslari. Amaliy qo'llanma T. 2022.